

**CHINGIZ AYTMATOV-ZAMONAVIY ADABIYOTNING YIRIK
NAMOYONDASI**

Maxmudova Nodira Alisherovna

*Namangan davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasi
katta o'qituvchisi (PhD)*

E-mail:nodiramaxmudova9@gmail.com.Tel:+99899 789 40 17

Alisherova Dilshoda Ma'rufjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning eng buyuk donishmandlaridan biri, betakror adib, jamoat va davlat arbobi Chingiz Aytmatov va yozuvchining insonning ma'naviyati, hayoti, muhabbati, dostlik va tabiat tasvirlari aks ettirilgan shoh asarlari xususida so'z yuritiladi. Jumladan, adibning zamonamiz uchun har qachon ahamiyatga ega bo'lgan, ta'lif va tarbiya, umumbashariy qadriyatlar qalamga olingan "Birinchi muallim" qissasi yuzasidan atroflicha fikr va mulohazalar bayon etiladi. Asarning o'ziga xosligi, nechog' lik muhim ekanligi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Chingiz Aytmatov, umumbashariy qadriyatlar „Birinchi muallim“qissasi, ta'lif, tarbiya, milliy an'analar, Duyshen, Oltinoy, ta'lifning ahamiyati.

**ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ – ПРЕКРАСНЫЙ ПРИМЕР СОВРЕМЕННОЙ
ЛИТЕРАТУРЫ**

Махмудова Нодира Алишеровна

*Наманганский государственный педагогический институт, старший
преподаватель (кандидат педагогических наук) кафедры методики
дошкольного образования*

Электронная почта: nodiramaxmudova9@gmail.com Тел.: +99899 789 40 17.

*Алишерова Дилюда Маруфжан, дочь Наманганского государственного
педагогического института, студентка 3 курса педагогического факультета*

Аннотация: Данная статья посвящена Чингизу Айтматову, одному из величайших мудрецов XX века, уникальному писателю, общественному и государственному деятелю, а также шедеврам писателя, изображающим человеческую духовность, жизнь, любовь, дружбу, природу. В частности, будут высказаны развернутые мысли и мнения по поводу повести писателя «Первый учитель», всегда актуальной для нашего времени, где были написаны

образование и воспитание, общечеловеческие ценности. Будут освещены вопросы оригинальности произведения и его важности.

Ключевые слова: Чингиз Айтматов, общечеловеческие ценности, история «Первого учителя», воспитание, воспитание, национальные традиции, Дуйшен, Олтиной, значение образования.

CHINGIZ AITMATOV IS A GREAT EXAMPLE OF MODERN LITERATURE

Makhmudova Nodira Alisherovna

Namangan State Pedagogical Institute, senior teacher (PhD) of the Department of Preschool Education Methodology

E-mail: nodiramaxmudova9@gmail.com. Tel: +99899 789 40 17

Alisherova Dilshoda Marufjan, daughter of Namangan State Pedagogical Institute, 3rd grade student of the Faculty of Pedagogy

Annotation: This article is about Chingiz Aitmatov, one of the greatest sages of the 20th century, a unique writer, public and statesman, and the writer's masterpieces that depict human spirituality, life, love, friendship, and nature. In particular, detailed thoughts and opinions will be expressed about the writer's story "The First Teacher", which is always important for our time, where education and upbringing, universal values were penned. The issues of the originality of the work and how important it is will be covered.

Key words: Chingiz Aitmatov, universal values, the story of "The First Teacher", education, training, national traditions, Duyshen, Oltinoy, the importance of education.

Chingiz Aytmatov nafaqat qirg‘ iz eli, ayni paytda , butun

turkiy mamlakatlar, jumladan, o‘zbek xalqi uchun ham

aziz va qadrli siymo, o‘zbekning ulkan do‘sti edi.

(Shavkat Mirziyoyev)

Chingiz Aytmatov qirg‘iz xalqining jonkuyar, ulug‘ yozuvchisidir. Buyuk adib 1928-yil 12-dekabrda Qirg‘izistonning Talas vodiysida Shakar ovulida tavallud topgan. Uning otasi To‘raqul Aytmatov Qirg‘izistonning katta davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan. Onasi Naima Aytmatova o‘qimishli, oqila va o‘z davrining xalq og‘zaki ijodi namunalari bilimdoni bo‘lgan. Bo‘lajak adibga bolalik yillarida buvisi Oyimxon aya va uning qizi Qoraqiz opa aytib bergan hikoya , rivoyat, afsona va qo‘schiqlar o‘zgacha jo‘shqinlik baxsh etgan va uning buyuk asarlar muallifi bo‘lib yetishishida bolalik damlarida eshitgan ajib voqealar ta’sir etgan bo‘lsa ajab emas. Chingiz Aytmatov bolaligidan o‘z xalqi uchun jonkuyar farzand sifatida kamolga



yetadi. Bu uning o‘z xalqi uchun ado etgan ulkan ulug‘ vorlik ishlarida , o‘z xalqini ulug‘ lab yaratgan takrorlanmas asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov nafaqat qirg‘iz xalqi uchun, balki jahon adabiyoti tan olgan iste'dodli siymodir. U qirg‘iz adabiyotining eng yaxshi an'analalarini davom ettirib, barcha kishilarga o‘rnak bo‘larli darajada qirg‘iz adabiyotida alohida dasturilamal bo‘la oladigan pandnoma yaratgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, Chingiz Aytmatov juda qisqa muddat davomida jahonning millionlab kitobxonlarini o‘z asarlari bilan maftun eta oldi. Uning birinchi asari 1950-yilda yaratilgan va omma e'tiboriga taqdim etilgan. Ko‘p o‘tmay dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlari kitob ixlosmandlari Chingiz Aytmatov asarlarini o‘z ona tilida o‘qiy boshladi.

Chingiz Aytmatov asarlarining o‘ziga xosligi mavzu va motivlar xilma-xilligi , o‘z asarlarida insonning ma'naviyati, hayoti, muhabbatni o‘z aksini topishi, xalqchil qadriyatlar ulug‘lanishi, tabiat va inson o‘rtasidagi mutanosiblik tasvirlanganligi, adolat va axloqiy masalalar chuqur tahlil qilinganligi , realistik va poetik voqealar birlashtirilganligi, rang-barang tasvirlar va chuqur hissiyotlar jo etilganligi singari bir qator jihatlar bilan izohlanadi. Uning ijodi butun jahonda adabiyotsevarlar uchun ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Jumladan, "Oq kema", "Asrni qaritgan kun", "Jamila", "Tug‘ ilgan kun", "Alvido , Gulsari", "Momo yer", "Yurtimning o‘ziga xosligi", "Birinchi muallim" singari asarlari nafaqat qirg‘iz xalqi uchun, balki butun dunyo uchun sevimli kitobdir. Bu asarlar insonlarni umumbashariy qadriyatlar, muammolar , pokiza tuyg‘ular haqida o‘ylashga undaydi.

Chindan ham, Chingiz Aytmatov asarlari har jihatdan mukammal va takrorlanmasdir. Ayniqsa, "Birinchi muallim" qissasi har zamon uchun muhim qo‘llanma bo‘la oladigan tengsiz asrdir. Asar yozuvchining qalbdan chiqqan go‘zal tuyg‘ulari, qarashlari, qolaversa, adib ulg‘ aygan ovul , Gurkurov daryosi, tabiat tasviri bilan boshlanadi. "Birinchi muallim" qissasi bu tarzda boshlanishi ham kishilarga o‘zgacha zavq bag‘ishlay oladi va beixtiyor qissani boshdan oxirigacha hech bir qismida to‘xtalmay mutolaa qilishga undaydi, eng nekbin, pok tuyg‘ularni uyg‘otadi. Xususan, asar 1970-yilda yozilgan va adabiyotda o‘zining o‘ziga xos o‘rniga ega. Buning boisi qissada ta’lim, tarbiya insoniy qadriyatlar, ta’limning ahamiyati singari masalalar qalamga olingan. Asar Vatan , millat va zamonlarning uzlusiz bir-biriga bog‘ liqligi haqidagi asardir. Undagi voqealar, qahramonlar tasviri kishilar qalbiga chuqur kirib borishi va ularni harakatga keltirishi tabiiydir.

Darhaqiqat, qissada tasvirlangan qahramonlar fidoyi, mehnatsevar, oqko‘ngil, fidoyi, samimiyl insonlar. Ayniqsa, asarda ko‘plab hayat sinovlarini boshdan kechirgan, har qanday damda ham kurashishdan to‘xtamagan, qiyinchiliklarga duch kelganda ham bir on ortgabchekinmagan, mardonovor yengib o‘tgan, xalq uchun , yurt farzandlarini ilm-u ma'rifatli qilish yo‘lida o‘zidan ham kecha olgan Duyshen siyosini

orqali jonkuyar insonlar hayoti ochib berilgan. Duyshen qishloqda maktab ochib bolalarga ziyo ulashmoqchi bo‘ladi. Ammo oddiy xalq uning asl maqsadini anglab yetmaydilar. Unga maktab ochishda hech kim yordam bermaydi, yordam berish u yoqda tursin, uning o‘rniga muallimni " kelgindi" deya haqorat qiladi, uni oyoqosti qilib, qilayotgan ishlari odamlarni ishlaridan chalg‘ itish, o‘z manfaati uchun deya baho beradilar. Muallim shunday bo‘lsa ham bir o‘zi bir boydan qolgan tepalikdagi otxonani mакtab holiga keltirib, o‘quvchilarni uyma-uy yig‘ib, xatto ularni o‘quv qurollari bilan ta‘minlab o‘qitadi,bir lahma bo‘lsa ham o‘z mashaqqatlinishidan voz kechmaydi.Garchi o‘zi ham ko‘p bilimga ega bo‘lmasa ham bilganlarini sabot va matonat bilan o‘quvchilarga o‘rgatadi.U xalq farzandlarining ilmli bo‘lishini va Vatan uchun munosib farzandlar bo‘lib ulg‘ayishini istaydi. Duyshen o‘quvchilarga o‘zgacha mehr qo‘yadi. Xususan, shogirdlarining unga bo‘lgan mehr-u muhabbatining cheksizligi asarda juda ko‘p o‘rinlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, asarning bosh qahramonlaridan biri, ota-onasidan erta yetim qolgan , yangasining kaltaklaridan, haqoratli so‘zlaridan bezigan Oltinoy tilidan aytilgan quyidagi so‘zlar orqali buyuk muallimning shogirdlari qalbida nechog‘ lik chuqur mehr-u muhabbat qoldirganligini anglash mumkin."E Xudoym, o‘qituvchim koshkiydi mening tug‘ishgan akam bo‘la qolsa-yu, bo‘yniga osilib , qattiq quchsam-da, ko‘zlarimni chirt yumib , bisotimdagい eng yaxshi so‘zlarni uning qulog‘ iga shivirlab aytasam". Qissada bu jajji qiz obrazida ham asrlarni larzaga keltiruvchi bir qabohat, jaholat tasvirlanadi. Yangasi uni muallimning kuchli qarshiligiga qaramay bir yuzlari qizarib, bo‘rtib ketgan, go‘yo to‘nkani eslatuvchi besonaqay odamga turmushga berib yuboradi. Shunday bo‘lishiga qaramay Duyshen o‘z irodasi , kuchi orqali Oltinoyni bunday kimsaning qo‘lidan qutqara oladi va unga yangi hayot, umid baxsh etadi. Asarda To‘qol, Sayqal momo , Qartanboy ota singari sodda , mehribon insonlar orqali Oltinoy hamda Duyshenning ichki va tashqi olami, hayot mushkilliklari ochib beriladi. Oltinoy Sulaymonova tilidan aytilgan quyidagi jumlalar:"Eh teraklar, qadrdon teraklar! Hali sizlar yosh nav-nihol ekanligingizda ekib, voyaga yetkazgan odamning aytganlari-yu qilgan barcha orzu-niyatlari erta bir kun ro‘yobga chiqdi! Sizlar esa nega xomush ko‘rinib, mungli shovullaysiz! Yoki qish yaqinlashib, shamol yaproqlarimizni uzib tashlaydi, deb noliyapsizlarmi? Yoki xalq dard-alamlari tanimizni zirqiratyapti deb qayg‘ uryapsizlarmi?

Ha , hali qish keladi, qahraton sovuqlar-u qor bo‘ronlari bo‘ladi, lekin bahor ham keladi... "deya bayon etilgan fikrlar orqali inson yashar ekan yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik singari kuchlar har doim u bilan yonma-yon yurishi, zulmat, qabohat bir kun tugashi , hech narsa abadiy emasligi singari tuyg‘ ularni idrok etish mumkin.Oltinoy tirishqoqligi , cheksiz kuch-matonati orqali akademik darajasiga ko‘tarildi.Bu yo‘lda uning ustoz qilgan ulug‘ vor ishlar diqqatga sazovordir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bizning hayotimizda muallimlarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, Chingiz Aytmatovning yuqoridagi asari orqali buyuk haqiqatni anglaymiz. Dunyoda yaxshilik, ezgulik, ilm-u ziyo, ulug‘ vor ishlargina insonni yorqin kelajakka eltishi mumkin. "Birinchi muallim" qissasi orqali ustozlarning buyuk inson ekanligini, komil shaxs bo‘lib ulg‘ ayishimizda ularning o‘rni beqiyos ekanligini tushunib yetamiz. Chinakam ilmli, tirishqoq , mehnatsevar, pok, samimiy insongina porloq kelajakka erishishi mumkin. Shunday ekan har onimizni ilm-u ziyo o‘rganishga baxsh etib,bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatayotgan, qalblarimizga ma'rifat ulashayotgan zotlarni ulug‘lashimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chingiz Aytmatov "Birinchi muallim" qissa. Asil Rashidov tarjimasi. Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.
2. "Chingiz Aytmatov ijodini maktab darsliklarida o‘rganish" maqola , Sattorova Anorhol Xursandovna. "O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali"15- son, 20.01.2023